

**TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHDA PEDAGOGLARNING NUTQIY
FAOLIYATGA O'RGATISHNING AXAMIYATI**
**ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ГОВОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
УПРАВЛЕНИИ УЧЕБНЫМ ПРОЦЕССОМ**
**THE IMPORTANCE OF TEACHING TEACHERS TO SPEAK ACTIVITY IN
MANAGING THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Norqo'ziyeva Manzura Abduraxmonovna
JDPI Maktabgacha ta'lism metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachilarining mashg'ulotlarni boshqarishda nutq madaniyatining o'rni va mamuni xaqida so'z borgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: barkamol shaxs, kamol topish, nutq jarayoni, yosh avlod, nutq va harakat jarayonlari, nutqiy madaniyatini oshirish, so'z boyligi.

Annotation: This article discusses the role and content of speech culture in the management of lessons by preschool educators and provides methodological recommendations.

Keywords: harmonious personality, maturity, speech process, young generation, speech and action processes, speech culture development, vocabulary.

Аннотация: В статье рассматривается роль и содержание речевой культуры в организации уроков дошкольными воспитателями и даются методические рекомендации.

Ключевые слова: гармоничная личность, зрелость, речевой процесс, молодое поколение, речевые и действия, развитие речевой культуры, лексика.

Bolaning yetuk barkamol shaxs bo'lib kamol topishida pedagog va tarbiyachilarining o'rni benihoya kattadir. Har bir bolaning rivojlanishida pedagogning avvalo nutq jarayonini to'g'ri tarzda olib borishi muhim omildir. Shu o'rinda aytish kerakki bu o'zgarishlar qator bir necha farmonlar va qarorlar qabul qilinishi bilan olib borilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lism Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PQ-4312 sonli qarori hamda 6-noyabrdagi "Ta'lism va Tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884- sonli qarorlarining qabul qilinishi va uzuksiz ta'limgning joriy etilishi hamda uning asosiy

bo'g'ini sifatida Maktabgacha ta'lif tizimining kiritilishi yosh avlodni yoshligidan barkamol toptirishga qaratilgan eng oliy maqsaddir.

Bolaning nutq faoliyatini olib borishga alohida e'tibor talab qilinadi. Chunki bolada 3yoshdan to 7 yoshlar oralig'ida kattalarning nutq va harakat jarayonlariga taqlid qilish malakasi rivojlanadi. Bu esa bolalar nutqiy madaniyatini oshirish, so'z boyligini to'ldirish, jumlalarni va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish va shu o'rinda o'z fikrlarini va ichki kechinmalarini o'z nutqi orqali kengroq ifodalashga imkon beradi. Bu esa tarbiyachi va pedagoglardan o'z ustida ko'proq ishlashini talab qiladi. Kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko`rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to`g`ri talaffuz, so`zlarni to`g`ri qo`llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda, atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammaliklarini ham o`zlashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning nutq madaniyatiga bevosita bog`liq bo`ladi. Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachning nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafaqat to`g`ri so`zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so`zlashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to`g`ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo`lishi hamda so`z bilan belgilash to`g`ri va aniq amalga oshirilishi lozim. Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o`qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg`otadi, ularda qayg`urish, so`z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o`qib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi. Pedagog o`z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo`lishi va unda kamchiliklar borligini sezsa, ularni darhol bartaraf etishgi intilmog`i lozim. Biroq, o`z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so`zlovchining diqqat-e'tibori eng avvalo nutqning mazmuniga qaratilgan bo`ladi. Nutqda aniqlangan kamchiliklarni tarbiyachi maxsus daftarga qayd etadi, so`ngra reja ishlab chiqadi va ularning bartaraf etishga doir ishlarni tashkil qiladi. Bu jarayonda pedagog xodimda quyidagilar talab qilinadi.



Xulosa o'rnilida shuni aytishimiz mumkinki, o'z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o'z o'rtoqlarining mulohazalariga qulqutishi darkor. Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki nutqni yozib olish chog`ida tarbiyachining o`zini-o`zini nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. Shuning uchun nutqda aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o`zi va uning o'rtoqlari diqqat-e'tibor bilan yondoshishlari zarur. A.A.Leontovning fikricha “Bola nutqini rivojlantirish eng avvalo , til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi , muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. L.R.Mirjalolova va boshqalar Maktabgacha ta'linda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. T.: 2018 [1/6] 147 bet
2. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklori” O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti T.2006 [1/51] . 214bet
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзаликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-2256
4. Хасanova, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.

- 5..М.А.Норқўзиева Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюксиймоларнинг роли Самарқанд 2020
- 5 Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
- 6.Norquziyeva, M. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБГА МУНОСАБАТИНИ ЎЗГАРТИРИШ-КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ГАРОВИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
- 8.Abduraxmonovna, N. M. (2020). ENSURING PROFESSIONAL STABILITY OF FUTURE TEACHERS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(6).
- 9.Norquziyeva, M. (2021). XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH: XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH. Журнал дошкольного образования, 2(2).
- 10Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.